

ABDULLA QAHHOR “MING BIR JON” HIKOYASI TAHLILI

**Ahmedova Dilfuza Hasan qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Menejment fakulteti LG-52 guruh talabasi  
[dilfuzaahmedova2006@gmail.com](mailto:dilfuzaahmedova2006@gmail.com)*

+9989915137948

**Rahbar: Muxlisa Sadriddinovna Muhitdinova**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“O`zbek va rus tillari” kafedrasi dotsenti.v.b*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 08.05.2026*

*Revised: 09.05.2026*

*Accepted: 10.05.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Mastura, Akramjon,  
vafo, sadoqat, umid,  
ishonch, sabr, iroda  
timsoli.*

*Bu maqolada Abdulla Qahhorning “Ming Bir Jon” hikoyasi tahlil qilingan. Asarda oldingi yillarda inson hayoti, og‘ir sharoitda ham xalqning sabr-toqati, insoniy fazilatlari va mehr-oqibati yoritilgan. Yozuvchi inson hayot ekanki ya’ni nafas olib turar ekanki umid bor demoqchi, bunday tashqari qiyin vaziyatlarda ham tushkinlikka tushmasdan hayot uchun kurashish kerakligi, insonning fidoyiligi va mehr-muruvvatini chuqur tasvirlaydi.*

**Kirish:** Abdulla Qahhor-o‘zbek adabiyotining eng yirik hikoyanavislari, inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgan yozuvchilardan biridir. Uning “Ming bir jon” hikoyasi insoniylik, mehr, fidoyilik va sadoqat tuyg‘ularini ulug‘laydi va hikoyaning badiiy xususiyatlari, qahramonlarning tavsifi haqida ma’lumot beriladi. Asar o‘z davrida ham, hozirda ham o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradigan ma’naviy kuchga ega.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida xalq hayoti, inson ruhiyati va ijtimoiy muammolarni chuqur yoritgan yozuvchidir. Adibning bir nechta asarlari bunga aniq misol bo‘la oladi, masalan “Bemor”, “Ming Bir Jon”, “San’atkor” va shunga o‘xshash ba’zi asarlarda urush yillarida xalqning ko‘rgan qiyinchiliklari va

ularning boshdan kechirgan adolatsizliklari, ta'lim, tibbiyot va shunga o'xshagan sohalarda millatning oqsaganligi yoritilgandir. Uning "Ming bir jon" asari ham ana shunday hayotiy va ta'sirli hikoyalardan biridir. Bu asarda urush yillarining dahshati, insonlarning og'ir sinovlarga duch kelgani va shunday sharoitda ham insoniylikni saqlab qolishga intilgani tasvirlanadi. Hikoya bahor ta'rifi bilan boshlanadi. Hikoyaning bu tarzda boshlanishi bekorga emas. Kasalxonadagi bemor uchun kasallikdan sog'ayish xuddi izg'irin qishdan xorigan tabiatning qaytadan ko'z ochishiga qiyoslanadi. O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi? Ha, o'n yil bo'libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo'lar-bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri. Hoji akaning ko'zlari o'ynab ketdi. Eri? Eri bormi? Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga! Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin: O'n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi. Shuni ayting, – dedi hamshira. – Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo'ydirib oldi. Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi. Hikoyada shuni korishigiz mumkinki Akramjon Masturaning sog'ayishiga va oyoqqa turishiga o'zidanda ko'proq ishongan va doimo yonida bo'lgan. Hikoya bosh qahramonlari Mastura hamda Akramjon timsollari orqali umid, hayotga muhabbat, sadoqat, vafo tuygulari kuylanadi. Har bir inson hayotda turli xil qiyinchiliklarga duch keladi, ba'zida hayotning sinovlariga qo'l siltagimiz, undan koz yumgimiz keladi, turfa xil mushkulotlar oldida esankirab qolamiz, lekin qalbimiz tubida bir narsa mash'ala kabi bizni yashashga, ularga qarshi mardonavor kurashishga chorlaydi. Bu tuygu umid deb nomlanadi, u har qanday holatimizda ham bizda boladi, boy insonda ham bir burda nonga zor bolgan insonda ham mana shu tuygu doimo u bilan birga boladi, uni doimo hayot uchun kurashishga chorlayveradi. Umid tuygusi bilan sabr tuygusi uygunlashganda inson asta-sekinlik bilan o'z maqsadlariga, orzulariga erisha boshlaydi. Hikoyada mana shu ikki beg'ubor tuyg'u Mastura obrazida uyg'un holatda yorqin, go'zal ranglar bilan tasvirlab beriladi. Hikoyaning bosh qahramoni Mastura Aliyevani matonat va iroda timsoli desak adashmagan bo'lamiz, sababi u o'n yildan beri kasallik bilan kurashib kelgan ammo hayotdan ya'ni yashashdan umidini uzmagani. Buning asl sababi sifatida Akramjon ya'ni uning turmush o'rtog'i desak adashmagan bo'lamiz va asardagi eng yoqtirgan qahramonim desam adashmagan bo'laman. Buning asosiy sababi yuqorida aytib o'tganinmdk undagi sadoqat va matonatdir. Asar davomida shuni ko'rishigiz mumkinki hamma Mastura Aliyevaning tuzalishiga ishonmagan bir paytda u doim Masturaning oldida bo'ldi va umidini so'ndirmadi. Mening fikrimcha bu asar hozirgi yoshlarda sadoqat va matonat tuygusini uyg'ota oladi degan umiddaman. Inson

yashar ekan, butun umri davomida turli xil sinovlarni boshidan kechiradi. Mana shu sinovlarni kechib o'tishda unga doimo bir yelkadosh kerak bo'ladi ya'ni ota -ona, sodiq bir do'st va vafoli bir umir yo'ldosh. Asardagi mana bu parchadan ham ko'rishingiz mumkin Mastura Aliyevaning irodasi va o'ziga bo'lgan ishonchining kuchliligini, Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro'parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog'ini yamayotgan edi shekilli. Birdan ko'cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam – tobut! Akramjonning ikki o'rtog'i hovlimizga tobut ko'tarib kirdi! Yuragim shig' etib ketdi. Voy sho'rim, nahot o'lgan bo'lsam... To es-hushimni o'nqlab, Akramjonga bir nima degunimcha, boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo'yib, uyga kirib keldi; uyga kirdi-yu, meni ko'rib ikkovi ham boyagi Hoji akangizday shaytonlab qolayozdi. Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta'sir qilgani yo'q. Bunaqa narsalar o'lim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin, men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta" dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman. Xulasa qilib shuni aytishim mumkinki, asarda bosh qahramon bo'lmish Mastura hayotining eng qiyin onlarida ham o'ziga bo'lgan ichonchni yo'qotmadi uning o'rniga matonat va iroda timsoliga aylanishga harakat qildi. Hattoki o'n yildan beri to'shakka mixlangan bo'lsa ham atrofdagilariga yetarlicha ko'mak bo'la oldi deb o'ylayman. Bu hikoyada Akbarjon obrazida alohida to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi, sababi u Mastura bilan turmush qurganiga endigina sakkiz oy bo'lganidan boshlab uning kasalligi bilan birga kurashadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, " Kasalni o'zi emas, uni boqqan kasal " degan xalq orasidagi naql bejizga aytilmagan. Bundan xulosa chiqarib aytishimiz mumkinki, Akbarjon yillar davomida bir ayolni sevib ardoqlaydi, eng og'ir kunlarida unga yelkadosh bo'ladi, doim uni qo'llab quvvatlaydi va uni sadoqat va vafo timsoli desak adashmagan bo'lamiz. Mastura va Akbarjondagi bunday insoniy hislatlar hozirgi yoshlar uchun ham o'rnak bo'ladi deb umiq qilaman.

Xulosa qilib aytganda, Ming bir jon hikoyasi insonning matonati, umid va sadoqat kabi yuksak fazilatlarini ulug'lovchi noyob asarlardan biridir. Abdulla Qahhor ushbu hikoya orqali inson har qanday og'ir sinovlarga duch kelmasin, qalbidagi umid va yashashga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi kerakligini mahorat bilan tasvirlaydi. Mastura obrazi orqali sabr, iroda va hayotga muhabbat ifodalansa, Akramjon timsolida chin insoniylik, vafo hamda fidoyilik gavdalantiriladi. Asarning eng muhim jihati shundaki, u kitobxonni nafaqat o'ylashga, balki insoniy munosabatlarga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Bugungi

jamiyatda ham hikoyada ilgari surilgan mehr-oqibat, sadoqat va insoniy qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu sababli bu asar yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim badiiy manbalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Ming bir jon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, turli nashrlar.
2. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Ziyonet axborot ta'lim portali
6. [Kitob.uz](http://Kitob.uz) elektron kutubxonasi
7. O'zbekiston Milliy kutubxonasi